



## O'zbek adabiyotida lirik qahramon masalasi

**Xudoyberganova Durdona Anvarjon qizi**

Farg'ona davlat universiteti

Magistratura bo'limi

Adabiyotshunoslik: o'zbek adabiyoti

mutaxassisligi 2-kurs magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada lirik qahramon tushunchasining adabiy jarayondagi o'rnini, uning badiiy tabiatini belgilovchi asosiy omillar hamda lirikaning mazmun va shaklini shakllantirishdagi roli yoritiladi. Lirik qahramonning ichki kechinmalar, ruhiy holatlar, shaxsiy munosabat va estetik qarashlarni ifodalovchi badiiy subyekt sifatidagi xususiyatlari umumiy nazariy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqot lirik "men"ning poetik mazmundagi ahamiyatini ochib berishga, uning adabiy-estetik funksiyasini aniqlashga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** lirik qahramon, lirika, lirik subyekt, badiiy obraz, kechinma, poetik "men", adabiy tavsif, estetik ifoda.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается понятие лирического героя, его основные характеристики и роль в формировании содержания и формы лирических произведений. Исследование предлагает общий теоретический анализ лирического субъекта как художественного образа, выражающего внутренние переживания, психологические состояния, личные отношения и эстетические взгляды. Работа направлена на выявление значимости поэтического «я» и его литературно-эстетических функций.

**Ключевые слова:** лирический герой, лирика, лирический субъект, художественный образ, переживание, поэтическое «я», литературное описание, эстетическое выражение.

O'zbek adabiyotida lirik qahramon — lirikaning markaziy obrazini yaratadigan, shoir kechinmalari, ruhiy holati yoki ma'lum bir ijtimoiy qatlamning ichki olamini ifodalovchi badiiy subyekt sifatida muhim o'rin egallaydi. Lirik qahramon masalasi faqat shoirning shaxsi bilan bog'liq bo'lmay, balki badiiy tafakkur taraqqiyoti, davr ruhiyati, estetik qarashlar va poeziyaning ma'naviy-ma'rifiy vazifalari bilan chambarchas aloqadordir. Shu bois lirikaning asosiy "meni" sifatida namoyon





bo‘ladigan lirik qahramon turli tarixiy bosqichlarda o‘ziga xos genezisi, mazmuniy-falsafiy talqini va badiiy takomiliga ega bo‘lib borgan.

Lirikaning asosiy obrazi — lirik qahramon (ba‘zan u lirik subyekt deb ham yuritiladi). Kopincha lirik qahramon deganda muallif tushuniladiki, bu har doim ham to‘g‘ri bolavermaydi. Zero, shoir o‘zining kechinmalarini tasvirlashi ham, o‘zganing ruhiyatiga kirgan holda osha "o‘zga shaxs" kechinmalarini tasvirlashi ham mumkin.<sup>1</sup> Shu bois lirik qahramon doimo muallifning bevosita o‘zi emas, balki u yaratgan umumlashgan yoki badiiylashtirilgan ruhiy obraz sifatida namoyon bo‘ladi. Lev Tolstoy aytadi, “ Har bir inson qalbida mavjud bolishi mumkin bolgan barcha qalblar imkoniyat tarzida mavjuddir, shunga kora, shoir ozganing holatiga kirishi, ma'lum hayotiy situatsiyadagi istalgan insonning kechinmasini his qilishi ham mumkin.”<sup>2</sup>

O‘zbek adabiyotida lirik qahramon fenomeni uzoq tarixiy taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan bo‘lib, uning shakllanishi xalq og‘zaki ijodi an‘analaridan boshlangan. Dostonlar, qo‘shiqlar, marsiyalar va xalq qo‘shiqlarida shoir shaxsi bilan lirik obrazning uyg‘unlashuvi kuzatiladi. Xalq qo‘shiqlaridagi “men” — shaxsiy emas, balki umumlashgan, ma‘lum bir ijtimoiy qatlam yoki guruh ruhiy holatining ifodachisi sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois dastlabki bosqichlarda lirik qahramon individual psixologik tuyg‘ulardan ko‘ra, milliy-madaniy tajribani mujassamlashtiruvchi kollektiv obraz sifatida shakllandi.

Yozma adabiyotning taraqqiyoti, xususan, mumtoz Sharq she‘riyati an‘analari lirik qahramonning badiiy tabiatiga yangi mazmun olib kirdi. Navoiy, Bobur, Furqat kabi mutafakkirlarning lirikasida lirik “men” endi muayyan shaxsning ma‘naviy olami, ruhiy savollari, hayotiy iztirobi va badiiy mushohadasi bilan boyidi. Xususan, tasavvuf adabiyoti ta‘sirida lirik qahramon ilohiy ishq, ma‘rifat yo‘lida izlanayotgan ruh sifatida talqin qilindi. Tasavvufiy she‘riyatda “men” — nafaqat shoirning o‘zi, balki koinot tartibi bilan uyg‘unlikka intilgan ruhning ramziy obrazidir. Klassik o‘zbek adabiyoti she‘riyati lirik qahramon obraziga alohida e‘tibor qaratgan. Bu obraz shoirning ichki ruhiy olami, his-tuyg‘ulari va insoniy qadriyatlarini aks ettirishda markaziy vosita bo‘lgan. Lirik qahramon orqali shoir nafaqat shaxsiy kechinmalarini, balki inson ruhiyatining umumiy xususiyatlarini ham ifodalaydi. Shu bois, u klassik she‘riyatning

<sup>1</sup> D. Qur‘onov Adabiyotshunoslikka kirish.

<sup>2</sup> D. Qur‘onov Adabiyotshunoslikka kirish.





eng asosiy badiiy timsollaridan biriga aylangan. Navoiy ijodida u ishqiy va falsafiy kechinmalarni birlashtiruvchi obraz sifatida gavdalanadi. Bobur asarlarida lirik qahramon o'z kechinmalarini tabiat va kundalik hayot voqealari bilan bog'laydi. Shu tarzda, lirik qahramon nafaqat shoirning ichki dunyosini, balki o'quvchining ruhiyatiga ham ta'sir qiluvchi badiiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Klassik o'zbek adabiyotida lirik qahramon shoirning ichki olami, ma'naviy yetuklik va axloqiy qadriyatlarni poetik tarzda aks ettiruvchi asosiy badiiy vosita hisoblanadi. U muhabbat, ishq, falsafa va tabiat timsoli sifatida she'riyatga falsafiy chuqurlik va ruhiy boylik olib kiradi. Shu bois, klassik lirik qahramon o'zbek adabiyoti tarixida muhim va o'chmas badiiy obraz sifatida saqlanib qolgan.

XIX asr oxiri XX asr boshlariga kelib, jadid adabiyoti lirik qahramon tabiatiga yangicha ma'no berdi. Mahmudho'ja Behbudiy, Abdulhamid Cho'lpon Fitrat atrofida shakllangan madaniy muhit lirik "men"ni ijtimoiy uyg'onish, milliy o'zlikni anglash, erkinlik g'oyalari bilan boyitdi. Cho'lpon lirikasida shoirning shaxsi bilan tarixiy-milliy iztirob uyg'unlashib, lirik qahramon murakkab psixologizmga ega bo'ldi. Shu davrdan boshlab lirik "men"ning individual, ichki kechinmalarga boylashuvi kuzatiladi.

Sovet davrida lirik qahramon masalasi keskin ijtimoiy-siyosiy kontekstga kirib keldi. Mafkuraviy talablar tufayli lirik "men" ko'p hollarda shoirning asl ovozi emas, balki "yagona to'g'ri" deb tan olingan ijtimoiy obrazni ifodalovchi timsolga aylantirildi. Shu jarayonda Usmon Nosir kabi ijodkorlar lirik qahramon tabiatiga chinakam psixologik individualizm olib kirishga muvaffaq bo'ldilar. Usmon Nosir lirikasida ichki iztirob, tashvish, o'zlikni izlash, mehr-muhabbatning nozik kechinmalari ochiq ifodalanib, o'zbek lirik qahramoni modern ruhiyat darajasiga ko'tarildi.

Mustaqillik yillaridan boshlab o'zbek poeziyasida lirik qahramonning subyektiv ovozi to'liq erkinlikka ega bo'ldi: shaxsiy tajriba, individual kechinmalar, ekzistensial izlanishlar, modern va postmodern badiiy usullar uning tabiatini yanada murakkablashtirdi. Mustaqillik davri o'zbek she'riyatida lirik qahramon shaxs erkinligi va milliy o'zlikni chuqur anglashga intiluvchi zamonaviy badiiy timsol sifatida shakllandi.<sup>3</sup> Mustaqillik yillarida o'zbek adabiyotida lirik qahramon obrazida sezilarli yangilanishlar ro'y berdi. Bu davr she'riyati shaxs erkinligi, milliy o'zlikni anglash va ruhiy uyg'onish kabi tamoyillarga asoslandi. Lirik qahramon avvalo mustaqil

<sup>3</sup> Qur'onov D. Adabiyot nazariyasi.-Toshkent: Akademnashr, 2020





fikrlovchi, ichki olamiga chuqur nazar tashlaydigan, jamiyat va Vatan taqdiriga befarq bo‘lmagan ijodiy obraz sifatida shakllandi. Mustaqillik sharoitida lirik qahramonning asosiy xususiyati — milliy o‘zlikni anglash va qadriyatlarni yangicha talqin qilishdir. Shoirlar tomonidan yaratilgan lirik qahramon o‘z tarixiga, ajdodlar merosiga, milliy ruhga sodiq bo‘lgan holda zamonaviy tafakkur egasi sifatida tasvirlanadi. Unda Vatan muhabbati faqat his-tuyg‘u emas, balki mas‘uliyat va bunyodkorlik g‘oyasi bilan uyg‘unlashadi. Bu davr lirikasida shaxsning ma‘naviy-ruhiy izlanishlari, poklikka intilishi, ichki uyg‘onish jarayonlari keng o‘rin egallaydi. Lirik qahramon ko‘pincha tasavvufiy dunyoqarash, ilohiy muhabbat, ruhiy kamolot kabi mavzular bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Shuningdek, mustaqillik yillari she‘riyatiga xos yana bir jihat — erkin fikr va shaxsiy kechinmalarni ochiq ifodalashdir. Lirik qahramon sevgisi, iztirobi, quvonchi, umidi, hayotdan kutgan orzulari kabi insoniy tuyg‘ularni cheklovlarsiz bayon etadi. Zamonaviy hayot, shahar madaniyati, global o‘zgarishlar ham uning ruhiy olamiga kirib keladi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbek adabiyotida lirik qahramon – bu lirikaning markaziy badiiy subyekti bo‘lib, shoirning ichki kechinmalari, ruhiy holati, estetik qarashlari va shaxsiy munosabatlarini ifodalashda asosiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Lirik qahramonning genezisi uzoq tarixiy jarayon bilan bog‘liq bo‘lib, u avval xalq og‘zaki ijodidan meros sifatida shakllangan umumlashgan obrazdan boshlab, yozma adabiyotning rivojlanishi, shoirlarning individual ruhiy izlanishlari va falsafiy tafakkuri bilan boyigan. Shu jarayonda lirik subyekt nafaqat shaxsiy kechinmalarni, balki milliy-ma‘naviy qadriyatlar va ijtimoiy tafakkurni ifodalovchi badiiy vositaga aylangan. Lirik qahramonning takomili uning psixologik chuqurligi, badiiy obraz sifatida murakkabligi va poetik “men”ning adabiy-estetik funksiyasini oshirish bilan belgilanadi. Shu tariqa, u lirikaning mazmun va shaklini shakllantirishda markaziy rol o‘ynaydi, o‘quvchida ruhiy rezonans uyg‘otadi va shoirning badiiy tafakkurini yetkazuvchi vosita sifatida xizmat qiladi. O‘zbek lirik qahramoni genezisi va takomili nafaqat individual obrazning rivojlanishi, balki adabiyotning tarixiy, ijtimoiy va estetik kontekstlari bilan uzviy bog‘liqligini ham aks ettiradi. Shunday qilib, lirik qahramon o‘zbek adabiyoti tarixida umumlashgan kollektiv obrazdan individual, falsafiy va estetik jihatdan boyitilgan badiiy subyektga aylangan bo‘lib, uning adabiy-estetik roli va lirikaning mazmun-shakl jihatidagi ahamiyati barqaror va uzviydir.





**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Qur'onov D. Adabiyot nazariyasi
2. Qur'onov D. Adabiyotshunoslikka kirish
3. Adabiy tur va janrlar
4. Adabiyotshunoslik lug'ati

